
Konstitutsiya – inson huquqlari asosi

Bilamizki, Konstitutsiyada ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning eng umumiy normalari qayd etiladi. Konstitutsiyaga kiritilgan qoidalarning amalda ijro etilishiga doir alohida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari hamda ularning himoya qilinishiga oid umumiy qoidalar belgilab qo'yilgan.

Xususan, Konstitutsiyaning VII–X boblari shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlariga doir eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qamrab olgan. Ushbu huquq va erkinliklar hamda ularning kafolatlarini bilib olish har bir shaxsning kundalik hayotida juda muhim rol o'ynaydi.

Misol uchun, konstitutsiyaning 24-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekani, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatligi qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, yashash huquqidan hech kim mahrum qila olmaydi. Ushbu huquqdan mahrum qilish yoki mahrum qilishga urinish jinoyat kodeksining tegishli normalari bilan jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi.

25-moddaga ko'ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Yuqoridagi qoidadan ma'lum bo'ladiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham qonuniy asosi bo'lmasa, hech bir shaxsni hibsdan yoki qamoqda saqlab tura olmaydi. Hibsdan yoki qamoqda saqlab turish uchun qonuniy asoslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18, 242–248 va 558-moddalarida qayd etilgan.

26-moddada hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilangan. Ushbu normaning ijrosini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17-moddasida sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi alohida belgilab qo'yilgan.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari Konstitutsiya bilan quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklar belgilab berilgan:

Ø Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega;

Ø Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas;

Ø O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir;

Ø Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir;

Ø Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin;

Ø O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim;

Ø Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Buvayda tuman adliya bo`limi

yetakchi maslahatchisi
Ibroximov

F.

Konstitutsiya - inson huquqlari asosi

eng umumiy normalari qayd etiladi. Konstitutsiyaga kiritilgan qoidalarning amalda ijro etilishiga doir alohida normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquqlari hamda ularning himoya qilinishiga oid umumiy qoidalar belgilab qo`yilgan.

Xususan, Konstitutsiyaning VII-X boblari shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlariga doir eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni qamrab olgan. Ushbu huquq va erkinliklar hamda ularning kafolatlarini bilib olish har bir shaxsning kundalik hayotida juda muhim rol o`ynaydi.

Misol uchun, konstitutsiyaning 24-moddasida yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekani, inson hayotiga suiqasd qilish eng og`ir jinoyatligi qayd etilgan. Bundan ko`rinadiki, yashash huquqidan hech kim mahrum qila olmaydi. Ushbu huquqdan mahrum qilish yoki mahrum qilishga urinish jinoyat kodeksining tegishli normalari bilan jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi.

25-moddaga ko`ra, har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Yuqoridagi qoidadan ma`lum bo`ladiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham qonuniy asosi bo`lmasa, hech bir shaxsni hibsdan yoki qamoqda saqlab tura olmaydi. Hibsdan yoki qamoqda saqlab turish uchun qonuniy asoslar O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18, 242—248 va 558-moddalarida qayd etilgan.

26-moddada hech kim qiynoqqa solinishi, zo`ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilangan. Ushbu normaning ijrosini musthaklamash uchun O`zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17-moddasida sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha`ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shartligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo`ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha`ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi alohida belgilab qo`yilgan.

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari Konstitutsiya bilan quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklar belgilab berilgan:

Ø Har kim o`z sha`ni va obro`siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega;

Ø Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas;

Ø O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir;

Ø Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir;

Ø Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin;

Ø O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim;

Ø Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Buvayda tuman adliya bo`limi

yetakchi maslahatchisi
Ibroximov

F.

2022-12-30 11:47:13